

UDK:-616.853:616.314.2-08

EPILEPSIYA BILAN KASALLANGAN BEMOR- LARDA KUZATILADIGAN GIPERTROFIK GINGI- VITNI DAVOLASH USULLARINI TAKOMIL- LASHTIRISH

Mardonova D.K

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bu epilepsiya kasalligi bilan og'rigan bemorlar soni ortib borayotganligidir. Dunyo miqyosida bu kasallik bilan kasallangan bemorlar soni yildan yilga oshib bormoqda, lekin bu kasallikning boshqa kasalliklar bilan bog'liq patogenezi to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar yo'q. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunga kelib epilepsiya bilan kasallangan bemorlar soni, dunyo aholisi bo'yicha 1000 aholiga 5-6 kishi to'g'ri kelmoqda. Epilepsiya kasalligi ko'proq yosh va keksa yoshlilarda uchramoqda. O'rta yoshli insonlarda esa bu ko'rsatlich past. Epilepsiya bilan kasallangan bemorlar hayoti davomida epilepsiyaga qarshi dori vositalari(masalan antikonvulsantlar) bn bu kasallik bilan kurashadilar. Bu dori vositalari avvalambor, og'iz bo'shligida bir qator o'zgarishlar keltirib chiqaradi. Bular orasida eng ko'p uchraydigani gipertrofik gingivitdir. Antikonvulsantlar orasida ayniqsa difein (MHN Phenytoin) og'iz bo'shlig'I uchun ayniqsa zararlidir va gipertrofik gingivit kelib chiqishida eng muhim faktordir.

Kalit so'zlar: epilepsiya, gipertrofik gingivit, difein (MHN Phenytoin), Vektor apparati

Аннотация

Одной из актуальных проблем современности является рост числа пациентов с эпилепсией. Число пациентов с этим заболеванием ежегодно увеличивается во всем мире, однако информации о патогенезе этого заболевания в сравнении с другими заболеваниями недостаточно. Согласно статистическим данным, в настоящее время число больных эпилепсией составляет 5-6 человек на 1000 человек в мире. Эпилепсия чаще встречается у молодых и пожилых людей. У людей среднего возраста этот показатель ниже. Пациенты с эпилепсией борются с этим заболеванием, принимая противоэпилептические препараты (например, противосудорожные) на протяжении всей жизни. Эти препараты, прежде всего, вызывают ряд изменений в полости рта. Наиболее распространенным из них является гипертрофический гингивит. Среди противосудорожных препаратов, особенно дифенин (МНН Фенитоин), особенно опасен для полости рта и является важнейшим фактором развития гипертрофического гингивита.

Ключевые слова: эпилепсия, гипертрофический гингивит, дифенин (МНН Фенитоин), аппарат «Вектор»

Annotation

One of the pressing issues of our time is the growing number of patients with epilepsy. The number of patients with this condition increases annually worldwide, but information on its pathogenesis, compared to other disorders, is insufficient. According to statistics, the current prevalence of epilepsy is 5-6 people per 1,000 worldwide. Epilepsy is more common in young and older adults. The prevalence rate is lower in middle-aged people. Patients with epilepsy struggle with this condition by taking antiepileptic drugs (such as anticonvulsants) throughout their lives. These drugs primarily cause a number of changes in the oral cavity, the most common of which is hypertrophic gingivitis. Among anticonvulsants, diphenine (INN Phenytoin) is particularly dangerous for the oral cavity and is a major factor in the development of hypertrophic gingivitis.

Keywords: epilepsy, hypertrophic gingivitis, diphenine (INN Phenytoin), Vector device

Kirish. So'nggi yillarda epilepsiya bilan kasallanish soni keskin oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, bu kasallikni yetarlicha o'rganish, kasallik bilan qarshi kurashish, ularni davolash va boshqa kasalliklar bilan bog'liqlik darajasini yanada chuqurroq o'rganib chiqish kabi masalalarni keltirib chiqaradi. Epilepsiya kasalligi bu markaziy nerv sistemasi kasalligi bo'lib, miya nerv hujayralaridagi elektr faoliyatining sinxron razryadlari natijasida takror-takror bo'lib turadigan xurujlar bilan namoyon bo'ladi. Bemor bunda xushini yo'qotadi, tanasi qisman yoki to'liq tartibsiz harakatlar qila boshlaydi. Og'izdan ko'pik chiqadi, ba'zi hollarda ongning o'zgarishigacha olib kelishi mumkin. Dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga binoan, butun dunyo bo'yicha 50 milliondan ortiq kishi epilepsiya kasalligi bilan og'rib kelmoqda. Bu kasallik bilan ko'pincha o'smir yoshidagi bolalar, shuningdek, keksa yoshdagi insonlar kasallanadi. Epilepsia kasalligi asab tizimidagi tug'ma o'zgarishlar(irsiiy omillar), tug'ilish vaqtidagi jarohatlar, kislorod yetishmasligi, tug'ruq vaqtida bosh qismi jarohatlanishlari, avtohalokatlar, miyaning yallig'lanishli kasalliklari(meningit, ensefalit), miyadagi o'smalar, qon aylanishining buzilishi va boshqa ko'plab etiologik faktorlar natijasida kelib chiqishi mumkin. Bu kasallikda tonik-klonik xurujlar, mushaklarning qisilishi, qisman yoki to'liq ongning yo'qolishi, bosh aylanishlar, turli og'riqlar kabi klinik belgilar

kuzatiladi. Bu kasallikda medikamentoz davolash, asosan antikonvulsantlar bilan davolash asosida kechadi. Har xil antikonvulsantlar, shu jumladan fenitoin, difein kabi dori vositalari eng birinchi navbatda, og'iz bo'shligi, tish qattiq to'qimalari va parodont to'qimasi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ruhiy kasallarda og'iz bo'shlig'i holati gigiyenasi juda past darajada bo'ladi. Ruhiy kasallardan farqli ravishda epileptik kasallarda og'iz boshlig'ining gigiyenik holati ijobiy darajadadir, lekin iste'mol qilinadigan epilepsiyaga qarshi dori-lar tish yumshoq to'qimalarini yallig'lanish darajasigacha olib boradi. Tadqiqotlarimiz davomida shu narsaga amin bo'ldikki, difeinni qabul qiladigan bemorlarning og'iz boshlig'i milk sohasida shish, qizarish, qichishish, tish-milk boylamaları shikastlanishlari, parodont to'qimasida ham bir qator patologik o'zgarishlar yuzaga keladi. Bular orasida eng ko'p uchraydigan og'iz bo'shlig'idagi o'zgarishlardan biri gipertrofik gingivitdir.

Gipertrofik gingivit-bu milk to'qimalaridagi surunkali yallig'lanish jarayoni bo'lib, u milk so'rg'ichlarining ortiqcha o'sishi bilan namoyon bo'ladi. Bunda milk shishgan holatga keladi, milk tishlarning yuzasini qisman yopib qo'yadi, bu esa o'z navbatida og'iz bo'shlig'i gigiyena holatining yomonlashishiga olib keladi. Gipertrofik gingivit bakterial qoplam, og'iz bo'shlig'i gigiyena holatining salbiy holatda bo'lishi, noto'g'ri qo'yilgan

C
A
R
J
I
S

ortopedik konstruksiyalar, endokrin va gormonal o'zgarishlar natijasida kelib chiqadi. Dori vositalari ta'siri natijasida kelib chiqadigan gipertrofik gingivit ancha og'ir darajada bo'ladi. Epilepsiya kasalligida esa antikonvulsantlar, ayniqsa difein surunkali ravishda iste'mol qilinganda gipertrofik gingivit keltirib chiqaradi va milk shishib, qonab ketish darajasigacha boradi. Milk yallig'lanishi ta'sirida milk to'qimalarida qon aylanish va metabolizm buziladi, biriktiruvchi to'qima elementlari faol o'sadi. Uzoq muddatli ta'sirlanish va dori vositalari ta'sirida gipertrofik gingivit hosil bo'ladi, ya'ni milk zich va qalin bo'lib qoladi. Gipertrofik gingivit surunkali ravishda kechadi, milk qizaradi, shishadi, og'izdan noxush hid keladi, tishlashda va tish tozalashda og'riq va qon ketish holatlari, tishlarning ko'rinishi milk yopib qo'yganligi hisobiga kichrayganday ko'rinishga kelib qoladi. Bu jarayon davom etaversa, parodontal chuqurchalar paydo bo'la boshlaydi. Epilepsiya bilan og'rigan bemorlarda gipertrofik gingivit yallig'lanishsiz shaklda boshlanishi mumkin, lekin vaqt o'tgan sari unga biror infeksiya qo'shilib, yallig'lanish jarayoni kuchayadi. Agar vaqtida kerakli chora-tadbirlar ko'rilmasa tishlar siljishi, tishlarning estetik buzilishi, chaynash funksiyasi pasayishi, jarayon bevosita parodontga o'tishi kabi holatlarga olib keladi.

Difein to'g'ridan-to'g'ri gingival fibroblastlarning subpopulyatsiyasiga ta'sir qiladi va ularning kollagen sintezini rag'batlantiradi. Bu gingival biriktiruvchi to'qimalarning hujayradan tashqari bo'shlig'ida turli darajadagi yallig'lanishli kollagen tolalarining to'planishiga olib keladi. Boshqa toifadagi farmakologik vositalar, xususan, kaltsiy kanallarining selektiv blokatori nifedipin va immunosuppressiv siklosporin preparati, shuningdek, gingival gipertrofiya bilan bog'liq. Dori-darmonli gipertrofik gingivit kursining chastotasi va xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, difeninni qabul qilgan epilepsiya bilan og'rigan bemorlarda u

31,3% hollarda rivojlanadi, bu uning gingivotrop faolligini tasdiqlaydi. Va faqat zamonaviy epileptologiyada uning amaliy qo'llanilishining kamayishi, antikonvulsanlarni talab qiladigan bemorlar guruhida gipertrofik gingivitning past chastotasini tushuntiradi.

Epilepsiya bilan og'rigan bemorlarning psixologik xususiyatlari va shaxsiyatning o'rtacha o'zgarishi turli xil ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlarga nisbatan tish salomatligini yuqori darajada saqlashga yordam beradi. Fenitoinning nojo'ya ta'siri natijasida gipertrofik gingivit kelib chiqishi to'g'risidagi haqida birinchi nazariya 1939 yilda yaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fenitoinning milkarga nojo'ya ta'siri 6 oy davomida ushbu dori-darmonlarni doimiy ravishda qabul qilgan bemorlarning 50-60 foizida kuzatiladi. Fenitoin bilan bog'liq gipertrofik gingivit bolalar va yoshlarda ko'proq uchraydi. Gingival chegara shaklidagi o'zgarishlar antikonvulsant terapiya boshlanganidan 3-6 oy o'tgach boshlanadi va ko'pincha og'iz bo'shlig'ining yomon gigienasi bilan bog'liq. Tish milkining vestibulyar qismi patologik jarayonda og'iz (til yoki palatal) qismiga qaraganda ko'proq zararlanadi. Difein to'g'ridan-to'g'ri gingival fibroblastlarning subpopulyatsiyasiga ta'sir qiladi va ularning kollagen sintezini rag'batlantiradi. Bu gingival biriktiruvchi to'qimalarning hujayradan tashqari bo'shlig'ida turli darajadagi yallig'lanishli kollagen tolalarining to'planishiga olib keladi.

Shunday qilib, individual kompleks davolash difeninni kiritishni talab qiladigan epilepsiya bilan og'rigan bemorlar, uning rivojlanish xavfi yuqori bo'lganligi sababli, gipertrofik gingivitning oldini olish va etarli darajada davolash uchun tish shifokori nazorati ostida bo'lishi kerak.

Tadqiqot maqsadi. Epilepsiya bilan og'rigan bemorlarda dori vositalari(ayniqsa

antikonvulsantlar) ta'sirida rivojlanuvchi gipertrofik gingivitni samarali davolash uchun zamonaviy kompleks usullarini joriy etish, shu jumladan Vektor apparati yordamidagi apparayli parodont terapiyasining klinik samaradorligini baholash va uning profilaktikadagi ahamiyatini aniqlash. Tadqiqotning asosiy vazifalari:

Epilepsiya bilan og'rigan bemorlarda gipertrofik gingivitning klinik va morfologik xususiyatlarini o'rganish.

An'anaviy va apparatli (vektor apparati yordamidagi) davolash usullarining samaradorligini taqqoslash.

Vektor apparati qo'llanilganda yallig'lanish belgilarining kamayishi, milk to'qimalarining tiklanish darajasi va gigiyenik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

Kompleks davolashning profilaktik ta'sirini va retsidivlarning oldini olishdagi ahamiyatini aniqlash.

Epilepsiya bilan og'rigan bemorlarda parodont kasalliklarini erta aniqlash va kompleks davolash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot bosqichlari. 1. Boshlang'ich klinik baholash – milklardagi holatni tekshirish, gigiyenik va parodont indekslarini (PMA, GI, PI, CPI) aniqlash. 2. Professional gigiyena – barcha bemorlarda tish toshlari va naletlar tozalandi. 3. Apparatli davolash (Vector apparati yordamida) Vector Paro va Vector Scaler tizimlaridan foydalanildi.

Davolash jarayoni tish toshlarini ultrakompakt rezonans orqali yo'qotish va parodont cho'ntaklariga dezinfeksiyalovchi suyuqlik kiritish orqali amalga oshirildi. Bu usul milklarga shikast yetkazmasdan, yallig'lanishni kamaytiradi va regeneratsiyani rag'batlantiradi.

4. Medikamentoz terapiya – yallig'lanishga qarshi va antiseptik gellar (Metrogil Denta, Xolisal), og'iz chayish eritmalari (0,05% xlorgeksidin) qo'llanildi.

5. Nazorat bosqichi – davolashdan 14 kun, 1 oy va 3 oydan so'ng klinik ko'rsatkichlar qayta baholandi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar

- Klinik usullar: og'iz bo'shlig'ini vizual tekshirish, indekslar baholash (PMA, GI, CPI).

- Apparatli usullar: Vector apparati yordamida ultraakustik ishlov berish.

- Laborator usullar: mikrobiologik va sitologik tahlillar (yallig'lanish darajasi va mikroflorani aniqlash uchun).

- Statistik tahlil: olingan natijalar Microsoft Excel va SPSS dasturlarida matematik ishlov berilib, o'rtacha arifmetik qiymatlar va ishonch intervallari hisoblandi.

Natijalar: Tadqiqot davomida epilepsiya bilan og'rigan va gipertronic gingivit tashxisi qo'yilgan 55 nafar bemor kuzatildi. Ular ikki guruhga ajratilib, 1-guruhda (nazorat) an'anaviy usul, 2-guruhda (tajriba) esa Vector apparati yordamida kompleks davolash o'tkazildi. 1. Klinik ko'rsatkichlar dinamikasi. Davolashdan oldin barcha bemorlarda quyidagi belgilar kuzatildi: Milklarning shishishi va qizarishi — 100% hollarda; Qon ketish indeksi (GI) o'rtacha $2,1 \pm 0,3$; Gigiyenik indeks (OHI-S) — $2,5 \pm 0,3$; PMA indeksi — $64\% \pm 5,2$. Davolashdan so'ng: 1-guruh (an'anaviy GI indeksi) $1,4 \pm 0,3$; OHI-S $1,8 \pm 0,3$; PMA $38\% \pm 4,5$. 2-guruhda esa bu ko'rsatkich vektor bilan. $0,6 \pm 0,1$; $0,9 \pm 0,5$; $17\% \pm 4,1$.

Ko'rinib turibdiki, Vektor apparati qo'llanilgan bemorlarda yallig'lanish ancha kamygan. Gigiyenik holat ham ijobiy holatda.

Vektor apparati yordamida olib borilgan kompleks davolash epilepsiya bilan og'rigan bemorlarda gipertrofik gingivitni davolashda yuqori samaradorlik, to'qimalarning tez tiklanishi va qaytalanishlarni kamayishini ta'minladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, epilepsiya bilan og'rigan

bemorlarda gipertrofik gingivit ko'pincha dori vositalari, ayniqsa antikonvulsantlar ta'sirida rivojlanadi va bu holat milklarda to'qima o'sishi, yallig'lanish va gigiyenaning buzilishi bilan kechadi. An'anaviy davolash usullari yallig'lanish belgilarini kamaytiradi, biroq milklardagi gipertrofik o'zgarishlarni to'liq bartaraf etmaydi. Vektor apparati yordamida olib borilgan kompleks davolash yondashuvi yallig'lanish jarayonini samarali kamaytiradi, to'qimalarning regeneratsiyasini tezlashtiradi va bemorlarning gigiyenik ko'rsatkichlarini

sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu usul travmasiz, og'riqsiz va yuqori samarali bo'lib, epilepsiyaga chalingan bemorlarda dori ta'siridan kelib chiqadigan gingival gipertrofiyani davolash va profilaktika qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kompleks yondashuv — ya'ni medikamentoz, gigiyenik va apparatli (Vector) usullarni birgalikda qo'llash — parodont to'qimalarining holatini barqarorlashtirishda, qaytalanishlarning oldini olishda va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda samarali ekanligi isbotlandi.

Adabiyotlar ro'yhati.

1. Abramov N. M., Osorina E. P. Clinical and histological characteristics of hypertrophic gingivitis in patients taking dilantin //Dentistry. – 1964. –No. 3. –p. 27.
2. Chestnykh E. V. Gum hypertrophy: a side effect of cyclosporin therapy //Dentistry. – 2005. – No. 4. –p. 27.
3. Chechel A. P. On hypertrophic gingivitis in the treatment дифениномof patients with epilepsy with diphenin //Dentistry. – 1970. – No. 4. – pp.93-94.
4. Zoyirov T. E., Indiaminova G. N. Improvement of Methods of Providing Dental Care for Children with Mental Delay //Central Asian Journal of Medical and Natural Science – 2021, vol.2, no. 6, pp.167-170.
5. Indiaminova G. N., Zoirov T. E. Improvement Of Methods Of Providing Dental Care For Children With Mental Delayed Development //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. –2021. – T. 3. – №. 01. – C. 111-116.